



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

**IQTISODIYOTNI
MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK
MEXANIZMLARIDAN
FOYDALANISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-
amaliy konferensiya

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT-2024



**PUBLIC
PRIVATE
PARTNERSHIP**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

MOLIYA FAKULTETI

KORPORATIV MOLIYA VA QIMMATLI QOG‘OZLAR

KAFEDRASI

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-
XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

**«ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В
УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ»**

**“PRIORITY DIRECTIONS OF USING PUBLIC-PRIVATE
PARTNERSHIP MECHANISMS IN MODERNIZATION OF THE
ECONOMY”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2024 - YIL 30 - NOYABR

Toshkent-2024

«Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanishning o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman mavzusida xalqaro miqyosda»
T.: TDIU., 2024. – 702 b.

i.f.d., prof. T.Z.Teshabayevning umumiy rahbarligi ostida

Tahrir hay'ati a'zolari: i.f.d., prof. S. Mehmonov, i.f.d., prof. G. Abduraxmonova, DSc, dots. N. Shavkatov, i.f.d., prof. B. Tashmurodova, i.f.d., prof. O. Xamdakov, i.f.d., dots. D. Abdurahimova, PhD, prof. v.b. J.Qurbonov, i.f.n., prof. v.b. A. Botirov, PhD, prof. v.b. N. Sherkuziyeva, PhD, dots. A. Karimov, PhD, dots. N. Abdullayeva, PhD, dots. M. Raxmedova, PhD, dots. v.b. S. Omonov, PhD, dots. v.b. Z. Abduraxmanova, PhD M.Toshpo'latov, katta o'q. Hyunsoo Choi, katta o'q. Sh.Otaxonova, katta o'q. I.Xushvaqov, katta o'q. S.Fayziyev, G.Tangirberdiyeva, I.Avezov, Sh.Adhamjonov, Sh.Begmatova, J.Boysunov, D.Muxitdinova, I.Sulaymonov, I.Xo'razov

*Taqrizchilar: i.f.d., prof. D.Suyunov
i.f.d., prof. D.Abdikarimova*

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli, 2023-yil 11-sentyabrdagi «"O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151-sonli, 2024-yil 7-fevraldagi "Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-62-sonli qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan. Konferensiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasidan tashkil etilgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya to'plamida xorijdagi va mamlakatimizdagi yirik iqtisodchi-olimlari, tajribali amaliyotchilari, oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining yetakchi ilmiy xodimlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ilmiy ma'ruza tezislari mujassamlashgan.

Ushbu nashrda keltirilgan barcha ma'lumotlar va fikr-mulohazalar mualliflarga tegishli bo'lib, tahrir hay'ati a'zolarining fikriga mos kelmasligi mumkin. Nashrda keltirilgan raqamlar, statistik ma'lumotlar, fikr-mulohazalar uchun mualliflar mas'ul hisoblanadi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi 5-sonli yig'ilishi qarori bilan «Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam sifatida chop etishga tavsiya qilingan.

**UO•K : 336.581.1(575.1)
ISBN 978-9910-9770-6-0**

OBLIGATSIYALAR MOLIYALASHTIRISH MANBAI SIFATIDA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar kafedrasini assistenti
Avezov Ibrohim Ilxomovich
ibrohim6041@gmail.com

Jahon moliya bozorida obligatsiyalar yordamida moliyalashtirish qarz mablag‘larini jalb qilishning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Obligatsiya orqali resurs jalb qilish, qarz mablag‘larini jalb qiluvchi uchun kattaroq miqdordagi mablag‘larni jalb qilish, obligatsiyaga investitsiya qiluvchi investor uchun qaytarilishi kafolatlangan daromad olish imkonini beradi.

Fond bozorining asosiy instrumentlaridan biri bo‘lgan obligatsiyalar va ular bilan bog‘liq munosabatlarni ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar o‘rganishgan.

Jumladan, Biswa Nath Bhattacharyayga ko‘ra “rivojlangan mahalliy obligatsiyalar bozorlariga ega bo‘lish mahalliy moliya sektorining tashqi ta’sirlarga chidamliligini oshiradi”¹, ya’ni milliy obligatsiyalar bozorini rivojlanishi, mamlakat moliya sektorining tashqi moliyaviy manbalarga bo‘lgan qaramligini kamaytiradi.

Patara Thumrongvit va boshqalarga ko‘ra “obligatsiyalar bozori kapital bozorlarining samarali ishlashida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Jamg‘armalarni yo‘naltirish orqali u uzoq muddatli qarz oluvchilarga mablag‘larni taqdim etadi. Bunda u turli muddatlarga va risklarga ega bo‘lgan qarz vositalari uchun standart foiz stavkalarini belgilaydi, ularning ikkalasi ham uy xo‘jaliklarining jamg‘arish va qarz berish to‘g‘risidagi qarorini, hamda uzoq muddatli loyihalar uchun qarz olish va investitsiya qilish bo‘yicha biznes qarorlarini bildiruvchi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi”².

Mahalliy olimlarimizdan Sh. A. Toshmatov, S. Omovlar³ o‘z izlanishlarida banklarning xalqaro obligatsiyalar bozoridagi faoliyati va obligatsiyalarni emissiya qilish orqali kichik va o‘rta biznesni kreditlash ahamiyatini o‘rganishgan.

Obligatsiyaga turli manbalarda turlicha ta’rif berilgan, xususan O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra quyidagicha ta’rif berilgan: obligatsiya - emissiyaviy qimmatli qog‘oz bo‘lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa

¹ Biswa Nath Bhattacharyay. Determinants of bond market development in Asia. Journal of Asian Economics. [Volume 24](#), February 2013, Pages 124-137

² Patara Thumrongvit, Yoonbai Kim, Chong Soo Pyun. International Review of Economics & Finance. [Volume 27](#), June 2013, Pages 529-541


³ I.f.d. professor Toshmatov Sh.A. O‘zbekiston xalqaro obligatsiyalarining jahon moliyaviy bozorlarida joylashtirilishi: risk va prognozlar. <https://review.uz/oz/post/zbekiston-xalqaro-obligatsiyalarining-jaon-moliyaviy-bozorlarida-joylashtirilishi-risk-va>, Omonov S. U. Real state of investment funds as institutional investors in Uzbekistan. // International Research Journal of Management and Commerce, Volume 9, Issue 04 April 2022. P. 42.

mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi⁴.

Professor S. Elmirzayev "Moliya bozori" darsligida "obligatsiya – uni chiqargan shaxs va egasi o'rtasidagi qarz munosabatni tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir"⁵ deya ta'rif beriladi.

Mamlakatimizda obligatsiyaga oid munosabatlar 1992-yildan paydo bo'lgan, bunda jismoniy shaxslar uchun 12 foizli davlat obligatsiyalari chiqarilgan, lekin yuqori inflyatsiya ta'sirida obligatsiya sotib olganlar belgilangan daromadni ololmadilar va natijada jismoniy shaxslar orasida obligatsiyaga nisbatan ishonchsizlik yuzga keldi.

Bugungi kunda Toshkent Respublika fond birjasida obligatsiyalar bozorida 2023 yilda jami 92,18 mlrd so'm hajmdagi birjaviy bitimlar amalga oshirilgan va savdoda ishtirok etgan emitentlar soni 7tani tashkil qilgan.




1-rasm. Obligatsiyalar bozoridagi bitimlar hajmi, mlrd so'm⁶

Bitimlar hajmi bo'yicha eng katta savdo hajmi "Kapitalbank" ATBning obligatsiyalari bilan amalga oshirilgan, ularning umumiy hajmi 64,41 mlrd so'mdan oshgan, bu obligatsiyalar bozorida amalga oshirilgan bitimlar umumiy hajmining 69,88 foizini tashkil etgan.

⁴ "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son

⁵ S.E.Elmirzayev va boshqalar Moliya bozori. Darslik. – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019 324 b

⁶ Toshkent Respublika fond birjasi. Birjaviy tahlil – 2023 yil



2-rasm. Obligatsiyalar bo'yicha birjaviy bitimlar soni va hajmi⁷

2-rasmda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin oxirgi uch yilda birjaviy bitimlar soni o'sishni qayd etgan, lekin ularning hajmi miqdor jihatdan kamaygan. Bu obligatsiyalar bozorini yanada kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozimligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, obligatsiyalar yordamida mablag' jalb qilish, iqtisodiy rivojlanishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu orqali mamlakat iqtisodiyoti xorijdagi moliyaviy resurslarga qaramligi kamayadi. Shu bilan bir qatorda fond bozorini rivojlanishida, investitsiyalar muhitini yaxshilashda va uzoq muddatli qarz majburiyatlari bozorini rivojlanishda ham asosiy o'rinlarda turadi.

Shuningdek, xorij amaliyotida obligatsiyaning bir qancha turlari mavjud va bu obligatsiya orqali mablag'lar jalb qilishda imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi. Ayniqsa zamonaviy obligatsiya turlari hisoblangan yevroobligatsiya, yashil obligatsiya, ko'k obligatsiya, katastrofik obligatsiya munosabatlarining paydo bo'lishi uning moliyaviy resurs jalb qilishdagi imkoniyatlari yana ham keng ekanligini tushuntirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 03.06.2015 yildagi O'RQ-387-son
2. S.E.Elmirzayev va boshqalar Moliya bozori. Darslik. – Toshkent "Iqtisod-Moliya" - 2019
3. <https://new.openinfo.uz/home>
4. <https://uzse.uz/?locale=uz>
5. <https://stat.uz/uz/>

⁷ Muallif tomonidan tayyorlandi

| | | |
|--|--|-----|
| С. Элмирзаев, С. Омонов | КАПИТАЛ БОЗОРИ ИШТИРОКЧИЛАРИ СИФАТИДА ИНСТИТУЦИОНАЛ ИНВЕСТИТОРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ | 177 |
| Sh.B. Adxamjonov | ISLOMIY QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI | 181 |
| I.I. Avezov | OBLIGATSIYALAR MOLIYALASHTIRISH MANBAI SIFATIDA | 182 |
| B.J. Boyev | KORPORATIV TUZILMALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IPO AMALIYOTINING ROLI | 185 |
| B.J. Boysunov | QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI | 187 |
| B.J. Boyev | AKSIYALARNI OMMAVIY JOYLASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI | 190 |
| A.A. Isayeva | FINANCIAL RISK MANAGEMENT IN REAL-SECTOR ENTERPRISES: IDENTIFICATION, ANALYSIS AND MITIGATION STRATEGIES | 192 |
| J.J. Qurbonov A.R. Sodikov | DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 195 |
| N. Sherkuziyeva | KORPORATIV TUZILMALARNING KAPITAL BOZORIDAGI FAOLLIGINI OSHIRISHDA DIVIDEND SIYOSATINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI | 198 |
| A.Sh. Ne'matjonov | MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIYOT VA MOLIYA BOZORIDAGI MUAMMOLARNI HAL ETISH MASALALARI | 200 |
| Sh.X. Otaxonova | KORPORATIV QIMMATLI QOG'OZLAR ORQALI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH | 202 |
| Sh.Tursunxodjayeva, P. Safarova | RISKS ENCOUNTERED IN THE INITIATIVE BUDGET | 205 |
| Q.R. Chinqulov | XUSUSIYLASHTIRISH: RUMINIYA TAJRIBASI | 208 |
| J. Razzaqov, A. Abdiraxmonov | TIJORAT BANKLARI DIVIDEND SIYOSATI TAHLILI | 212 |
| С.Ў. Омонов | МИЛЛИЙ КАПИТАЛ БОЗОРИДАГИ МУАММОЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ | 215 |
| A. Abdiraxmonov | DIVIDEND SIYOSATINING TIJORAT BANKLARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI | 219 |
| S.J. Qilichev | MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MOLIYA BOZORIDAGI FIRIBGARLIKLARNI OLDINI OLISH MASALALARI | 221 |

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA DAVLAT-
XUSUSIY SHERIKLIK MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISHNING
USTUVOR YO‘NALISHLARI”**

**«ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
МЕХАНИЗМОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В
УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ»**

**“PRIORITY DIRECTIONS OF USING PUBLIC-PRIVATE
PARTNERSHIP MECHANISMS IN MODERNIZATION OF THE
ECONOMY”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI